XALQ DEPUTATLARI QUVA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-45-222-11-156-K/22 Quva tuman hokimiyati

Quva tumanining 2023 yilgi mahalliy budjetini

tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi 2022 yil 29 dekabrdagi Qonuni hamda Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2023 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq hamda Farg‘ona viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrdagi 01/01-38/2749-son xatini inobatga olib, Quva tumanining mahalliy budjetini qabul qilish maqsadida Xalq deputatlari Quva tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2023 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasiga asosan ishlab chiqilgan Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2023 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq 2023 yilga Quva tumani mahalliy budjetiga viloyat mahalliy budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 178,3 milliard so‘m miqdorida tasdiqlanganligi hamda tuman mahalliy budjeti daromadlari 141,8 milliard so‘m

va xarajatlari esa 320,1 milliard so‘m miqdoridagi prognozlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qarorga asosan 2023 yilda:

a) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo ichimligi uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

b) Quyidagi soliq turlari tuman mahalliy budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

-jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

-jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-aylanmadan soliq;

-yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

-davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari;

v) Shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga quyidagi ulushlarda:

-qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

-yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlarning 20 foizi;

-yuridik shaxslarning yer solig‘i va mol-mulkiga solinadigan soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushgan tushumlarning 50 foizi;

-davlat budjetiga undiriladigan jarimalarning 30 foizi;

-Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 50 foizi o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

4. Quva tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2023 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2023 yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan

2023 yilgi hududiy budjet mablag‘larini sohalarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, 2023 yil uchun budjet daromadlarining mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha ajratma me'yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Zaxira jamg‘armalariga mahalliy budjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2023 yil uchun tuman mahalliy Budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 3 milliard 13 million 574 ming so‘m miqdorida tasdiqlansin.

6. Tuman hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini tuman budjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo’naltirilishini ta’minlasin.

7. Qarorga ko‘ra 2023 yil uchun tuman budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishsiz ya’ni 1 milliard 34 million so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Tuman mahalliy budjeti daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi Budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qilishi qonun bilan belgilanganligi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar mahalliy budjetning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

10. Tuman hokimligi hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar bilan birgalikda:

-tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini etarli darajada rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini ta’minlash;

-mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib

borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarini moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakuniga ko‘ra, keyingi chorakni birinchi oyining 10 sanasiga qadar hokimlik tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish;

-mahalliy budjetning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilsin va veb-saytlarga ularning natijalarini joylashtirsin.

11. Tuman hokimligi budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanilishi hamda erishilgan natijalarni Kengashga kiritib borilishini ta’minlasin.

12. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Quva tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **X.Umarov**

Xalq deputatlari Quva tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-45-222-11-156-K/22-son qaroriga
1-ilova

Quva tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2023 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
I.	**Rag‘batlantiruvchi daromad**	**42 156 500**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	42 156 500
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**56 166 100**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**39 209 000**
1	Yagona soliq to‘lovi	11 754 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	1 971 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	17 956 000
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 253 000
6	Ijara to‘lovlari	275 000
	Viloyat va tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**16 957 100**
1	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	4 215 400
2	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	719 500
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 670 000
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i	6 112 500
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 816 000
6	Jarimalar	2 423 700
III.	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)**	**43 522 820**
	Aholi soni (ming kishi)	*268*
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	17 607 211
2	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	7 552 470
3	Tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i	18 363 139

Jami daromadlar	**141 845 420**

Xalq deputatlari Quva tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-45-222-11-156-K/22-son qaroriga
2-ilova

Quva tumani mahalliy budjetidan 2023 yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Tumanlar va shaharlar budjetlaridan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa (ming so‘m)
1	Maktabgacha ta'lim bo‘limi	27 934 372,0
2	Xalq ta'limi bo‘limi	12 560 612,0
3	Tibbiyot birlashmasi	123 811 564,0
4	Madaniyat bo‘limi	5 794 819,0
5	Cportni rivojlantirish bo‘limi	6 894 963,0
6	Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi	701 037,0
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 147 308,0
8	Irrigasiya bo‘limi	2 665 779,0
9	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	526 733,0
10	Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (Markazlashgan hisobxona)	689 879,0
11	Obodonlashtirish boshqarmasi	23 169 967,0
12	Moliya bo‘limi	1 451 135,0
13	Yoshlar ishlari agentligi hududi bo‘limi	6 390 624,0
14	Kengash kotibiyatini saqlash xarajatlari	213 891,0
15	**Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi**	**5 302 646,0**
	shundan	
	O‘zini-o‘zi boshqarish organlari (MFY lar)	4 862 640,0
16	**Hokimiyat**	**100 840 982,0**
	shundan	
	Hokimlikni saqlash xarajatlari	2 655 343,0
	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	6 251 854,0
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	4 143 356,0
	Ijtimoiy nafaqalar	66 835 000,0
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari ("dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi" va markazni saqlash xarajatlari)	139 537,0
	"Tashabbusli budjet" jamg‘armasiga o‘tkaziladigan mablag‘lar	15 725 318,0
	Hokim yordamchilari tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun ajratilgan mablag‘lar	2 077 000,0
	Zaxira jamg‘armasi	3 013 574,0
	Xarajatlar jami	**320 096 311,0**

Xalq deputatlari Quva tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-45-222-11-156-K/22-son qaroriga
3-ilova

Quva tumani mahalliy budjetidan 2023 yilgi hududiy budjet mablag‘larini sohalarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari.

	Ko‘rsatkichlar	Quva tumani
	Xarajatlar - jami	**320 096 311**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**243 758 546**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	44 364 984
	- maktabgacha ta'lim	27 934 372
	- umumiy ta'lim	16 430 612
1.2	Sog‘liqni saqlash	123 811 564
1.4	Madaniyat	1 712 498
1.5	Sport	6 894 963
1.7	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensasiyalar	66 835 000
1.8	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	27 600
1.9	Fuqarolarga etkazilgan zararni qoplash	0
1.10	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	111 937
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**29 749 933**
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta'mirlash xarajatlari	3 000 000
2.3	Obodonlashtirish	20 169 967
2.7	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	2 665 779
2.10	Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari	689 879
2.13	Veterinariya qo‘mitasi	1 147 308
2.16	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlari	2 077 000
4.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**22 986 300**
5.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**4 862 640**
6.	**Zahira jamg‘armasi**	**3 013 574**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**15 725 318**

Xalq deputatlari Quva tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-45-222-11-156-K/22-son qaroriga
4-ilova

2023 yil uchun budjet daromadlarining mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha ajratma me'yorlari

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Korxonalar aylanmasidan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizasiya qilishdagi aksiz soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jarimalar
1	Quva tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30